

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "GRANDFATHER-BOBO" QARINDOSHLIK OTINING LEKSIK TAHLILI

*N. Abdusamatova*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada, ingliz va o'zbek tillaridagi "grandfather-ota" qarindoshlik otining leksik semantik va etimologik tahlili qilinadi. Zamonaviy tilshunoslikdagi nominativlar tadqiqi, xorij va o'zbek tilshunos olimlari tomonidan bildirilgan fikr va qarashlari, fikr mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nominatsiya, grandfather, ealdefæder bobo, bova baba, leksik tahlil

doi: <https://doi.org/10.2024/zcge7223>

Kirish.

Lisoniy nominatsiya narsa, hodisalarni idrok etish va nomlanishiga doir tajribalarni, nutqiy faoliyat asosida orttirilgan va nomlar zamirida o'z ifodasini topadigan lingvistik mexanizmlarni o'zida mujassamlantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Nominatsiya ana shu ikki jihati bilan ratsional tamoyillarga borib taqaladi. Nominatsiyaning tillararo universalligi esa millatidan qat'iy nazar inson zotiga in'om etilgan ongning ishlash prninspidagi mushtarak xususiyatlar orqali ko'zga tashlanadi. Binobarin, nominativ birliklar dastlabki asosini narsa va hodisalar haqidagi ichki mushohada, ya'ni botiniy struktura tashkil qiladi. Ana shu botiniy strukturalarning lisoniy ifodasining rejali asosda ro'yobga chiqishida ijtimoiy nutqiy foliyat sinovidan o'tib, til egalarining xotirasidan mustahkam o'rin egallagan analogik mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu botiniy strukturalarning bevosita voqelanishini ta'minlovchi tashqi formalar esa, har bir tilda an'anaviy tarzda amal qilib kelgan xususiyliklarga asoslanadi.

Mazkur maqolamizda turli til oilalariga mansub ingliz va o'zbek tillaridagi "grandfather-ota" qarindoshlik otining ingliz va o'zbek tillaridagi turli izohli, etimologik va frazeologik lug'atlarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda ularning leksik-semantik maydonlarini tahlil qilamiz.

Grandfather (n.) early 15c., from grand (adj.) + father (n.), probably on analogy of French grand-père. Replaced grandsire and Old English ealdefæder. Grandfather clause originally (1900) referred to exemptions from post-Reconstruction voting restrictions in the U.S. South for men whose forebears had voted before the Civil War. Grandfather clock is c.1880, from the popular song; they were previously known as tall case clocks or eight-day clocks. [www.etymonline.com]

[tarjima] Bobo (ot) Ilk XV asrlarda bu so'z "grand"(katta)va "father"(ota) so'zlarining birikuvidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu so'z "grandsir" va qadimgi ingliz tilidagi "ealdfader" so'zlari bilan o'rin almashgan. Grandfather birikmasi asli kelib chiqishi jihatidan 1900-yillarda AQShdagi ovoz berishdagi cheklashlari bo'lgan oldingi rekonstruksiyaadan xalos etilish ma'nolarini nazarda tutgan. Janubda Fuqarolar urushidan

¹ Abdusamatova Nafisa Berdiyrovna, SamDCHTI o'qituvchisi

oldin erkaklar uchun avlodlari tomonidan saylangan shaxs "Grandfather" 1880 yillarning mashhur qo'shiqlaridan kirib kelgan. Ular oldinlari "katta qutuli soat" va "sakkiz kunlik soatlar" ma'nolari bilan mashhur bo'lgan.

BOBO 'otaning yoki onaning otasi', 'buva'. O'g'lim bobosi bilan bozorga ketdi. Qadimgi turkiy tilda ba:ba tarzida talaffuz qilingan bu so'z asli 'onaning otasi' ma'nosini anglatgan, keyinchalik ma'no kengayishi voqe bo'lib, 'otaning otasi' ma'nosini ham anglatib boshlagan; qadimgi turkiy tildayoq a: unlisini cho'ziqlik belgisi yo'qolgan, o'zbek tilida a unlilari ä unlilariga almashgan: ba:ba-baba- buva. [1]

Ingliz tilining izohli lug'atlarida quyidagi izohlarni ko'rib chiqdik:

• Grandfather: the father of each of one's parents. My grandfather is over 90. [2]

• Grandfather: the father of one's father or mother; also: ancestor-grandfatherly (grandad, grandady). [4]

• Grandfather-father of one's parents [3]

• Grandfather-1. the father of one's father or mother

2. the person who founded or originated something

For ex: Freud is often called the grandfather of psychoanalysis

Grandpa-informal one's grandfather

Grandpapa-old-fashioned term for grandfather

Grand pappy-North American term for grandfather. [3]

[tarjima] Grandfather-bobo

1. Ota yoki onaning otasi.

2. Biror narsani kashf qilgan shaxs.

3. Ajdod.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida quyidagi izohlarni ko'rib chiqdik:

BOBO- 1 Otaning yoki onaning otasi (nabiraga nisbatan). Boboning tol ekkani – o'ziga nom ekkani. Maqol.

2. (faqat ko'pl. shaklida) O'tmishda yashab o'tgan qarindosh kishilar, ajdodlar. Agar Bobur mirzo Samarqandni tezroq egallamasalar, bobolardan qolgan saltanat begona sulola ilkiga o'tib ketgusidir. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

3. Hurmat yuzasidan qariyalar nomiga qo'shib ishlatiladi. Murod darrov turib, Hoji bilan so'rashdi va nazokat bilan unga joy ko'rsatdi: -Keling, Hoji bobo! Ko'rinmaysiz, kelmaysiz? A.Qahhor, Yillar.

4. Aziz-avliyolar nomiga qo'shib ishlatiladi. Shayx Zayniddin bobo. Zangi bobo. Xizr bobo qo'lingni baland qilsin. U.Ismoilov, Saylanma.

5. tar. O'tmishda Buhoroning katta dahalarini nazorat qiluvchi bosh mirshab unvoni.

6. folk. Oqsoqol, otaxon. Kambag'allar Tog'ayni bobo ko'targan edi. U kambag'allarga bosh bo'lib turgan edi. "Rustamxon".

7. Bobo (erkaklar ismi).

Bova shv, ayn, bobo Bizning bir bovamiz bo'lardilar. Hech tinchimagan. "Yoshlik". [6]

Qarindoshlik ma'nosini anglatuvchi bobo so'zining etimologik kelib chiqishini ingliz va o'zbek tillarida ko'rib chiqadigan bo'lsak, har ikkala tilda ham asosiy ma'no saqlangan. Ingliz tilidagi bobo "grandfather" so'zining tahlil qiladigan bo'lsak "grand" –katta, "father" –ota ya'ni katta ota ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida ham xuddi shunday ma'noni anglatadi.

Bobo so'zining ma'nolariga e'tabor beradigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshash jihatlari juda kam. Lekin farqli jihatlari ko'proq. Masalan, bobo "grandfather" ya'ni "katta ota" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida ham katta ota ma'nosi asosiy ma'nolaridan biri hisoblanadi. Har ikkala tilda ham o'xshash ma'noni bildiruvchi ma'nosi bu ota yoki onaning otasi. Lekin, o'zbek tilida "ajdodlarimiz, hurmat uchun, aziz avliyolar

nomiga qoʻshilishi, Buhoroda bosh mirshab, erkaklarning ismi” kabi maʼnolarini ingliz tilida uchratmaymiz.

Maqolamizga xulosa qiladigan boʻlsak, oʻzbek va ingliz tillaridagi qarindoshlik otlarini etimologik, leksik-semantik tahlil qilib chiqib, qarindoshlik maʼnosini bildiruvchi soʻzlarning ingliz va oʻzbek tillaridagi izohiga toʻxtalar ekanmiz, bu soʻzlarning har ikki tilda ham bir necha oʻxshash va farqli jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Lekin ingliz tilida qarindoshlik otlarining baʼzi maʼnolarining ekvivalentlari oʻzbek tilida mavjud emas. Shu oʻrinda oʻzbek tilidagi qarindoshlik otlarining ham maʼnolarining ingliz tilidagi ekvivalentlari mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- [1]. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Раҳматуллаев Ш. — Т.: "Университет", 2000. - 599 б.
- [2]. Oxford advanced learner's dictionary, Jonathan Crowther. Oxford University Press, 1995. - 1398 ps.
- [3]. Webster M. Merriam Webster's Collegiate Dictionary (Tenth Edition), L., 1993. - 1164 ps.
- [4]. kizi Akhtamova, Farangis Ulugbek. "Etymological features of phraseological expressions in English language." *Educational Research in Universal Sciences* 1.5 (2022): 337-340.
- [5]. Akhtamova F.U. *Phraseological expressions in the modern English language and their derivative features* // *Экономика и социум*. 2022. №3-2 (94).
- [6]. Safaraliyeva, D., & Axtamova, F. (2023). *The Peculiarities of Teaching Multisensory Style of Learning*. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 1(5), 93-95.
- [7]. Khandamova, F., & Ibodulloeva, M. (2023). *The Linguistic Function of Spatial Deixis in English Texts*. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 1(4), 75-79. <https://doi.org/10.1997/nh210640>
- [8]. Abdirakhimovna M. Z. et al. *The Importance of Using Games in Teaching English to Primary Classes*. – 2023.
- [9]. New Oxford Dictionary of English, Judy Pearsall. Oxford University Press, 2001. - 2176 ps.
- [10]. Oʻzbek tilining izohli lugʻati (uchinchi jild). — Т.: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy-nashriyoti, 2007.- 688 b.
- [11]. Oktamovich E. Q., Tashkulovna Y. S. *Types of person-centered learning technologies and innovative forms, methods and tools* // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 197-199.
- [12]. Mukhsinov B., Yuldasheva S. *Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology* vol. 29, no. 5,(2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.
- [13]. <http://dictionary.reference.com>
- [14]. <http://www.etymonline.com>